SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ 9 (3) - 2023

# ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

# АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

# ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL

**ISSN:** 2181-1342 (Online)

**Сайт:** https://scienceproblems.uz

**DOI:** 10.47390/SCP1342V3I9Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

***№ 9 (3)-2023***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2023**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич –филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа октори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал:
https://t.me/scienceproblems_uz

## *МУНДАРИЖА*

## 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

*Mamajonov Rahimjon Akramovich*
"VII-VIII ASRLARDA ARAB XALIFALIGI ISTILOSIGA QARSHI KURASHDA MAHALLIY HUKMDORLARNING OʻRNI VA ROLI" MAVZUSIGA OID INGLIZ TILLI TADQIQOTLAR TAHLILI ........ 10-16

*Облобердиев Жасурбек Косим угли*
МЕРЫ НАКАЗАНИЯ, ПРИМЕНЯЕМЫЕ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВВ ........ 17-22

## 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

*Турсунов Бекмухаммад Омонович*
МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ БАҲОЛАШНИНГ МЕЗОН ВА КЎРСАТКИЧЛАРИ ........ 23-34

*Курпаяниди Константин Иванович*
ИССЛЕДОВАНИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ СИСТЕМ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ ЧЕРЕЗ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ РЕФОРМЫ ........ 35-44

*Ahmedov Shohjaxon*
OʻZBEKISTONDA CHAKANA SAVDONI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI ........ 45-51

*Кулибоев Азамат Шоназарович*
БЮДЖЕТ ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ ........ 52-62

*Рўзиев Абдумалик Ортиғалиевич*
МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТНИ РАҚАМЛАШТИРИШНИ БАҲОЛАШДА МИҚДОРИЙ ВА АХБОРОТ ТАҲЛИЛИ МЕТОДОЛОГИЯСИ ........ 63-73

*Abduraxmanova Shoxida Ravshanovna*
TIBBIYOT MUASSASALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH ........ 74-80

*Davronov Istamxoʻja Olimovich*
MEHMONXONA XIZMATLARI RAQOBATBARDOSHLIGI VA SIFATINI BAHOLASH USULLARI ........ 81-86

*Маматов Бахадир Сафаралиевич*
ҲУДУДЛАРДА ИНВЕСТИЦИЯВИЙ МУҲИТ ЖОЗИБАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МАСАЛАЛАРИ ........ 87-96

*Шолдаров Дилшод Азимиддин ўғли*
КАМ ТАЪМИНЛАНГАН ОИЛАЛАР УЧУН НАФАҚА ВА МОДДИЙ ЁРДАМ ТАЙИНЛАШ ВА ТЎЛАШ ТАРТИБИ ........ 97-104

*Баратов Махсудали Назиралиевич*
МИКРОМОЛИЯВИЙ ТАШКИЛОТЛАР ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ – ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ ........ 105-116

*Ergashev Islom Ismoilovich*
KESKIN RAQOBAT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI ............ 117-127

*Қодиров Азизжон Анварович*
ЎТИШ ИҚТИСОДИЁТИ МАМЛАКАТЛАРИДА ЭКОТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ АМАЛИЁТИ ............ 128-136

*Эшонкулов Акмал Кудратович*
ПРОБЛЕМЫ ПРОВЕДЕНИЯ АНАЛИЗА ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ............ 137-142

*Астанов Шерзод Рустамович*
ЎЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИНВЕСТИЦИОН ЛОЙИҲАЛАРНИ ЖАЛБ ҚИЛИШНИНГ ТАШКИЛИЙ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ............ 143-150

## ***09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ***

*Abdullayev Ibodulla Abdullayevich*
YOSHLARNI MILLIY G‘URUR RUHIDA TARBIYALASHDA OILA VA OILAVIY QADRIYATLARDAN UNUMLI FOYDALANISH USULLARI ............ 151-155

*Turabova Sevara Kattaqulovna*
BAHS–MUNOZARALARDA QO‘LLANILADIGAN TUZOQLAR VA MANIPULYATSION (SPEKULYATIV) USULLAR ............ 156-164

*Alimatova Nargis Abduxalilovna*
BARQAROR RAQOBAT USTUNLIGI-RAQOBATBARDOSHLIK OMILI ............ 165-174

*Allayarova Marhabo Mavlonovna*
UCHINCHI RENESSANS DAVRIDA YOSHLAR BADIIY IJODINI RIVOJLANTIRISH ZARURIYATI ............ 175-179

*Рахманов Баҳодир*
СИНЕРГЕТИК ТАФАККУР: ФАЛСАФИЙ МЕРОСИМИЗНИ ТАДҚИҚ ЭТИШНИНГ АҲАМИЯТИ ............ 180-186

*Abdiraxmanov Muzaffar Zaripbayevich*
ABU ALI IBN SINONING XORAZM MA’MUN AKADEMISIDAGI FAOLIYATI ............ 187-191

*Mirzaxalov Xojiakbar Tajibayevich*
JAMIYATDA GENDER TENGLIGI MUAMMOSINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI ............ 192-197

*Azimov Ashirali Mehmonboyevich*
XOTIN-QIZLAR GENDER MA’RIFATINING IJTIMOIY BARQARORLIKKA TA’SIRI ............ 198-202

*Azimov Sherzod*
PHILOSOPHICAL REFLECTION ON THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF SPORT IN SOCIETY ............ 203-207

*Абдурахмонович Хасан Иброхимович*
ЎЗБЕКИСТОНДА ЁШЛАР ИННОВАЦИОН ТАФАККУРИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ ............ 208-216

## 10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

*Kuliyeva Dilshoda Alijon qizi*
QUMAN TOPISHMOQLARINING OʻZBEK FOLKLORIDAGI PARALLEL SHAKLLARI ..........217-223

*Тешабаева Дилфуза Муминовна, Абдухалилова Гулбаҳор Карабаевна*
ТУРИЗМ СОҲАСИГА ОИД СЎЗ ВА ИБОРАЛАРНИ ПРЕФИКСЛАР ЁРДАМИДА ЯСАЛИШИ ..........224-230

*Abdinazarov Uktam Qushoqovich*
INGLIZ VA OʻZBEK TILLARIDA GIPPOLOGIK TERMINLARNING LINGVISTIK TADQIQI..231-236

*Axmedova Shaxodat Maxmutovna*
OʻZBEK XALQ PAREMALARIDA SHIFO KONSEPTINING IFODALANISHI..........237-241

*Ruziyev Xusniddin Baxritdinovich*
JAHON TILSHUNOSLIGIDA PAREMALAR TADQIQI ..........242-246

*Vositov Otabek Toxirjonovich*
TABIATNING ATMOSFERA HODISASI UMUMIY MA'NOSI VA LEKSIK SEMANTIK GURUHLARNING STRUKTURAL XUSUSIYATLARI ..........247-253

*Нодир Раҳматуллаев*
НАЗАР ЭШОНҚУЛ НАСРИДА ШАРПА АРХЕТИПИНИНГ ТАЛҚИНИ ..........254-260

## 12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

*Мамасобиров Давронбек Эрназарович*
ВАТАНДОШЛАР БИЛАН ИШЛАШ: ҚИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ ..........261-270

*Urakov Djahongir Rajabovich, Sharipovasror Safar o'g'li*
OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUN HUJJATLARIDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARNING HUQUQIY ASOSLARI ..........271-276

## 13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

*Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna*
OLIY TIBBIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI HISSIY-KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH ..........277-281

*Umarova Zaxro Abduraxim qizi*
TALABALAR MUSTAQIL TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART FIKRLASH (THINKING OUTSIDE THE BOX) NING ROLI ..........282-287

*Kadirov Ramz Turabovich*
TALABA-AKTYORLARNING SAHNA NUTQIGA OID BILIM VA KOʻNIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING SPETSIFIK TEXNOLOGIYALARI (DARS JARAYONIDAGI MASHGʻULOTLAR MISOLIDA) ..........288-295

*Khabiba Madaminovna Jurabekova*
THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF LISTENING IN THE FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE OF STUDENTS IN RUSSIAN LESSONS ..........296-302

*Nishonov Akmal Obidovich, Xamrakulov Xamidullo Turgunboyevich*
KLASTERLI O'ZARO TA'SIR SHAROITIDA INFORMATIKA O'QITUVCHILARINING MALAKASINI OSHIRISH JARAYONINI MODELLASHTIRISH MASALALARI ........ 303-310

*Ergashev Murodbek Ikromovich*
MUSIQA TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING KREATIV VA IJTIMOIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD IMKONIYATLARI ........ 311-316

*Utkirov Nusrat Kamilovich*
BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHNING KASBIY-PEDAGOGIK KOMPETENTLI TA'MINOTINI RIVOJLANTIRISH ........ 317-322

*Yulbarsova Xurshida*
BO'LAJAK SOTSIOLOGLARDA IJTIMOIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK JIHATLARI ........ 323-329

*Baychayev Fazliddin Xusenovich*
BO'LAJAK KON-METALLURGIYA SANOATI MUTAXASSISLARINING ELEKTROSTATIKAGA OID NAZARIY BILIMLARINI MUSTAHKAMLASH ........ 330-335

*Muminov Ulmas Ravshanqulovich*
O'ZBEKISTONDA "MAHALLA INSTITUTI" NING MAHALLIY O'Z-O'ZINI BOSHQARISH – ORGANI SIFATIDA SHAKLLANISHI, UNING HUQUQIY ASOSLARINI YARATILISHI ........ 336-341

*Tajibayeva Ma'mura Tojidinovna*
AJDODLARIMIZ PEDAGOGIK TA'LIMOTLARINI O'RGANISH ASOSIDA TALABALARDA G'OYAVIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH ........ 342-346

*Askarova Zulayxo*
BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNING FIKRLASH DARAJASINI ANIQLASHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH SAMARASI ........ 347-352

*Akhmadjonova Diyora Dilshod qizi*
EXPLORING THE EFFECTIVENESS OF TEACHING THROUGH ONLINE PLATFORMS ........ 352-362

*Jumaniyazova Go'zal*
OLIY O'QUV YURTI TALABALARINI PIRLSGA YO'NALTIRILGAN TOPSHIRIQLARNI TAYYORLASHGA O'RGATISH METODIKASI ........ 363-367

*Хусаинова Лейла Юнусова*
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В ОБУЧЕНИИ ФОНЕТИКЕ: ТЕХНОЛОГИИ И МЕТОДЫ ........ 368-373

*Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich*
MATEMATIK KREATIV TAVSIFDAGI MASALALARNING BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA KREATIV FIKRLASHINI FANLARARO ABSSESSIAL VA ORDINATAL BOG'LAB SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI VA ROLI ........ 374-379

*To'xtasinov Muhammadjon*
PEDAGOGLAR KASBIY KOMPETENLIGINI OSHIRISHDA UZLUKSIZ METODIK XIZMATNING O'RNI ........ 380-384

*Eshnazarov Murod Karimovich*
GERMENEVTIK YONDASHUV ASOSIDA TA`LIM MAZMUNINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI ........................................................................................................................ 385-391

SCIENCE PROBLEMS.UZ
Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 9 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*13.00.00- Психология фанлари*

**To'xtasinov Muhammadjon**
Namangan viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish
milliy markazi Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar va tillarni o'qitish
metodikasi kafedrasi mudiri

## PEDAGOGLAR KASBIY KOMPETENLIGINI OSHIRISHDA UZLUKSIZ METODIK XIZMATNING O'RNI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada xalq ta'limi tizimida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatishning maqsadi, vazifalari, metodik xizmat va metodik faoliyatning o'rni hamda ahamiyati haqida muhim ma'lumotlar berib o'tilgan.
**Kalit so'zlar:** uzluksiz ta'lim tizimi, kasb mahorati, kasbiy kompetenlik, uzluksiz metodik xizmat, ilg'or pedagogik tajribalar.

**Tokhtasinov Muhammadjon**
Head of the Department of Socio-Economic Sciences and
Language Teaching Methodology of the Namangan Region
National Center for Training Pedagogues in New Methodologies

## THE ROLE OF CONTINUOUS METHODOLOGICAL SERVICE IN IMPROVING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS

**Abstract.** This article provides important information about the purpose and tasks of continuous methodical service in the system of public education, the role and importance of methodical service and methodical activity.
**Keywords:** continuous education system, professional skills, professional competence, continuous methodical service, advanced pedagogical experiences.

**Тухтасинов Мухаммадджон**
Заведующий отделом социально-экономических наук и
методики преподавания языков Наманганской области
Национального центра подготовки педагогов по новым методикам

## РОЛЬ НЕПРЕРЫВНОЙ МЕТОДИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ В ПОВЫШЕНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГИ

**Аннотация.** В данной статье представлены важные сведения о цели и задачах непрерывной методической службы в системе народного образования, роли и значении методической службы и методической деятельности.
**Ключевые слова:** система непрерывного образования, профессиональные навыки, профессиональная компетентность, непрерывная методическая служба, передовой педагогический опыт.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3I9Y2023N52

**Kirish.** Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida amalga oshirilayotgan islohotlar, fan va texnologiyalar taraqqiyoti uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirishning yangi vazifalarini kun tartibiga qo‘ymoqda. Ta’limda joriy qilinayotgan turli xil metodlar, zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish va amaliyotga tatbiq qilish, ilg‘or tajribalarni o‘rganish, tahlil qilish va ommalashtirishning yangicha shakl hamda usullarini topish zaruriyati tug‘ilmoqda.

Bugungi kunda o‘qituvchining kasb mahoratini oshirish, uni ilg‘or metodlar va texnologiyalar bilan qurollantirish ta’limni rivojlantirishning muhim omili sifatida har qachongidan ham ahamiyatli bo‘lib qoldi, chunki busiz ta’lim sifatiga erishib bo‘lmaydi. Masalaning dolzarbligidan kelib chiqib, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan xalq ta’limi tizimida barcha yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqish, ularni tubdan takomillashtirish vazifasi qo‘yildi. Maktablarda ta’lim berishni yangi, zamonaviy metodikalar asosida tashkil etishni yo‘lga qo‘yish, mazkur metodikalar asosida ta’lim berish bo‘yicha o‘qituvchilarni tayyorlash kelgusi to‘rt yillik uchun ta’lim sohasini isloh qilish bo‘yicha Milliy ta’lim dasturini ishlab chiqishning eng dolzarb vazifalaridan biri etib belgilandi [1].

**Adabiyotlar sharhi**. Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar pedagoglar jamoasi, ta’lim tizimi va pedagogika fani o‘rtasidagi o‘ziga xos bog‘lovchi bo‘g‘in hisoblangan metodik xizmatni yanada takomillashtirish bilan chambarchas bog‘liq, ya’ni metodik xizmat tizimi ishining samaradorligi butun xalq ta’limi tizimini isloh qilish va takomillashtirish bilan, islohotlarning muvaffaqiyati esa tizimda metodik xizmat va metodik faoliyatni to‘g‘ri va samarali tashkil etilishiga bog‘liqdir.

Pedagoglar kasbiy kompetentligini oshirish ta’lim tizimida uzluksiz metodik xizmatni tashkil etishdan iborat, bu o‘z navbatida o‘qituvchilarning kasbiy bilim va malakalaridagi bo‘shliqlarni aniqlash va ularni to‘ldirib borish, amaliy faoliyat uchun zarur ijodiy qobiliyatlar hamda kompetensiyalarni rivojlantirish imkonini beradi. Biroq, ta’limni boshqaruv idoralarida va ta’lim muassasalarida pedagoglarni kasbiy rivojlantirish, tizimda metodik xizmat ko‘rsatish ishlariga, innovatsion va metodik faoliyatga yetarlicha e’tibor berilmayapti.

Umumiy o‘rta ta’lim tizimidagi islohotlar o‘quvchilarga sifatli bilim berish bilan birga hayotiy kompetensiyalarini rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Yangi davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, amaliyotga tatbiq etishda shu jihatga alohida e’tibor qaratilmoqda. Aytish joizki, bu boradagi ishlar samaradorligi, avvalo, maktab jamoasi, ta’lim boshqaruvi tizimi va pedagogika fanini bog‘lovchi bo‘g‘in — metodik xizmatning qay darajada yo‘lga qo‘yilganiga bog‘liq.

Ta’lim sifatini yuksaltirishda o‘qituvchi-pedagoglarning kasbiy mahorati va bilimidagi bo‘shliqlarni muntazam to‘ldirib boruvchi, faoliyatiga ijodiy yondashuvni rivojlantiruvchi metodik muhitni yaratish muhim ahamiyatga ega. Ammo ayrim hududiy xalq ta’limi tizimidagi boshqaruvi muassasalarida metodik ishlar namunali tashkil etilmagani tufayli so‘nggi yillarda metodik xizmat ko‘rsatishni takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar kutilganidek natija berayotgani yo‘q. Bu esa o‘quvchilarning davlat ta’lim standartlarini o‘zlashtirishida bo‘shliqlar hosil bo‘lishiga olib keladi.

**Muhokama va natija.** O‘qituvchi kasb-mahoratini oshirishda, ta’lim-tarbiyaning yangi va ilg‘or texnologiyalaridan foydalanishda, o‘z sohasida ta’lim-tarbiya jarayoni bilan bog‘liq yangiliklardan xabardor bo‘lib borishda metodik xizmatning ahamiyati katta. Shuning uchun

xalq ta’limi tizimida uzluksiz metodik xizmat faoliyat ko‘rsatadi. Uzluksiz metodik xizmat deganda quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladigan ishlar tushuniladi:

-ta’limdagi pedagoglar, muassasalarning yo‘nalishlar va o‘quv fanlari bo‘yicha metodik ta’minotga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash va tahlil qilish;

-ta’lim samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan ilg‘or pedagogik texnologiyalarni tanlash va amaliyotga joriy etish;

-o‘quv va metodik qo‘llanmalar, tavsiyalar, namunali dars ishlanmalari, nazorat topshiriqlari kabi o‘quv-metodik ishlarni tayyorlash va joylarga yetkazish;

-o‘qitishning yangi shakllarini joriy etish, ta’lim mazmunini takomillashtirish, samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan ilmiy-amaliy anjumanlar, o‘quv seminarlari, ijodiy uchrashuvlar tashkil etish;

-ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish va ommalashtirish[2].

Uzluksiz metodik xizmat tizimi bu – xalq ta’limi tizimidagi muassasalarning yo‘nalishlar va o‘quv fanlari bo‘yicha metodik ta’minotga bo‘lgan ehtiyojlarini aniqlash va qondirish mexanizmi bo‘lib, u doimiy ravishda ko‘p bosqichli faoliyat ko‘rsatuvchi tizimdir. Metodik xizmatga ehtiyojlarning mavjudligi va uni qondirishga bo‘lgan intilish metodik xizmat tizimini harakatlantiruvchi kuchidir.

Xalq ta’limi tizimida uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish tizimiga quyidagilar kiradi:

- umumiy o‘rta ta’lim maktabining Metodbirlashmalari;

-umumiy o‘rta ta’lim maktabining –Pedagogika kengashi;

-tuman xalq ta’limi bo‘limlari;

-pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlarining O‘quv-metodik kengashlari;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi xalq ta’limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalaridagi muvofiqlashtirish sho‘basi metodistlari;

-respublika ta’lim markazi huzuridagi metodik kengashlar [3].

Yuqoridagi metodik xizmat tuzilmalari jamoatchilik asosida faoliyat ko‘rsatsa-da, biroq ular rasmiy tuzilmalardir. Birinchidan, ular ta’lim muassasasi yoki ta’limni boshqaruv idoralarining ishchi organlaridir, qolaversa bu tuzilmalarning har biri rasman tasdiqlangan nizom asosida faoliyat olib boradi.

**Uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatishning asosiy maqsadi:**

- ta’lim muassasalariga metodik xizmatni tashkil etish va muvofiqlashtirib borish, ularni metodik adabiyotlar va boshqa vositalar bilan ta’minlash ahvolini o‘rganish va tahlil qilish, ta’lim-tarbiya jarayonining dolzarb ehtiyoj va muammolarini aniqlash, ularning optimal yechimini izlash va belgilash, pedagogning ehtiyoj talablari bilan muvofiqlashtirish asosida har bir pedagogning nazariy bilimlarini, umumkasbiy va pedagogik mahoratini oshirish, rivojlantirish yo‘llarini belgilash, bu boradagi takliflarni asoslash, monitoring o‘tkazish, natijalarni tahlil qilish va muammolarni bartaraf etish, amaliy-metodik yordam ko‘rsatish;
- uzluksiz kasbiy rivojlantirishning (malaka oshirishning) shakllari va mazmunini belgilash, tuzatish va o‘zgartirishlar kiritib borish;
- o‘qituvchi-pedagoglar mustaqil ijodiy ishlashlari uchun tavsiyalar ishlab chiqish;
- ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish, ularni ommalashtirish hamda targ‘ib qilishning maqbul shakl va mazmunini belgilash;

- ta’lim-tarbiya jarayonining istiqbol yoʻnalishlarini aniqlash, natijasini oldindan loyihalash;
- oʻquvchilarning bilim samaradorligini oshirish, iqtidorli oʻquvchilar bilan ishlashda amaliy yordam koʻrsatish, ta’lim-tarbiya sifatini oshirish va takomillashtirishga oid tavsiyalar yaratish.
- ta’lim mazmunini takomillashtirish va samaradorligini oshirishga yoʻnaltirilgan ilmiy-amaliy anjumanlar, oʻquv seminarlari, ijodiy uchrashuvlar tashkil etish.
- milliy oʻquv dasturlari va zamonaviy darsliklarni amaliyotga joriy etishda pedagog xodimlarga uzluksiz metodik yordam berishni tizimli tashkil qilish[4].

Xalq ta’limi tizimida uzluksiz metodik xizmat koʻrsatishda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- xalq ta’limi tizimida faoliyat yurituvchi xodimlarning kasbiy mahoratini oshirish, axborotlarga boʻlgan ehtiyojlarini oʻrganish va monitoringini olib borish;
- ta’lim jarayonida pedagoglarning ilmiy, pedagogik, psixologik, didaktik va metodik usullardan foydalanishidagi boʻshliqlarni aniqlash, toʻldirish yoʻllarini belgilashni muvofiqlashtirishda hamkorlik chora-tadbirlarini ishlab chiqish;
- ta’lim muassasalarida ilgʻor pedagogik texnologiyalar (yangi ta’lim metodikalari va Kembrij metodikalari) asosida oʻquvchi-yoshlarga ta’lim-tarbiya berayotgan ijodkor, tashabbuskor oʻqituvchi (tarbiyachi)lar haqida ma’lumotlar bankini yaratish;
- ta’lim muassasalaridagi metodik ishlarni oʻrganish va tahlil qilish orqali ularning faoliyatini takomillashtirish yoʻllarini aniqlash;
- rahbar hamda amaliyotchilarni pedagogika, psixologiya, metodikaga oid yangiliklar bilan tanishtirib borish uchun pedagogik (me’yoriy-huquqiy, ilmiy-metodik, metodik va boshqalar) ma’lumotlar bankini tashkil etish;
- maktabgacha ta’lim-tarbiyaga qoʻyiladigan talablar, umumiy oʻrta ta’limning yangi tahrirdagi Davlat ta’lim standartlari va oʻquv dasturlari (milliy oʻquv dasturlari), darsliklarning yangi avlodi, oʻquv-metodik toʻplamlar, video-materiallar, tavsiyanomalar, me’yoriy hujjatlar mazmuni bilan ta’lim muassasalari hamda pedagoglarni xabardor qilib borish;
- pedagog va rahbarlarning metodik ehtiyojlarini oʻrganish, attestatsiyaga tayyorgarlik hamda attestatsiya va uzluksiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish) kurslari oraliq davrida amalga oshiriladigan ishlarni belgilash;
- oʻquv fanlaridagi yangiliklar, ta’lim-tarbiya ishlari boʻyicha ilgʻor pedagogik texnologiyalar ish tajribalarni oʻrganishga, oʻqituvchi va tarbiyachilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishga (malakasini oshirishga) yoʻnaltirilgan oʻquv-metodik seminarlarni tashkil etish va oʻtkazish;
- ta’lim samaradorligini oshirishga, ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga qaratilgan metodik yoʻriqnomalar, tavsiyalar ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish;
- ta’lim-tarbiyaga oid tajriba-tadqiqot ishlarini tashkil etish va uning borishini nazorat qilish, xulosalarini oʻrganish, tahlil qilish, umumlashtirish va yuqori tashkilotlarga hisobot tayyorlash. Ta’lim muassasalari negizida yangi pedagogik texnologiyalarni, ilgʻor gʻoyalarni aprobatsiyadan oʻtkazish uchun tajriba-tadqiqot maydonchalarini tashkil etish va metodik yordam koʻrsatish;

- DTS, oʻquv dasturi, darslik, metodik va koʻrsatmali qoʻllanmalar, tavsiyalar hamda boshqa metodik materiallarni ilmiy-metodik kengashdan oʻtkazish va nashrga tayyorlash ishlarini tashkillashtirish;
- taʼlim jarayoniga oʻqitishning zamonaviy ilgʻor shakllari, metodlari hamda yangi axborot-kommunikatsiya vositalarni joriy etishda pedagoglarga koʻmaklashish;
- vazirlik koʻrsatmalari asosida oʻquv adabiyotlarini yaratish boʻyicha mualliflar tarkibi tanlovi va oʻquv adabiyotlari tanlovi hujjatlari loyihalarini tayyorlash, tanlovni tashkil etishda amaliy yordam berish;
- belgilangan tartibda Oʻzbekistonda taʼlim yoʻnalishida faoliyat olib borayotgan va boshqa xalqaro tashkilotlar (YUNESKO, YUNISEF) bilan aloqa oʻrnatish;
- fan, metodik xizmat koʻrsatish va uzluksiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish)ning samaradorligiga erishishda hamkorlik faoliyatini uygʻunlashtirish;
- pedagog va maktabgacha taʼlim muassasalari xodimlarining malakasini oshirishda hozirgi zamon ijtimoiy va ilmiy texnika taraqqiyotiga javob beradigan ilgʻor shakllarni, pedagogik texnologiya, innovatsiyalarni taʼlimning texnika va axborot vositalarini joriy etish[5];
- xalqaro va milliy baholash tizimlari boʻyicha oʻquvchilar bilim va kompetensiyalarini baholash boʻyicha tavsiyalar va yoʻriqnomalar tayyorlash;
- matbuot orqali ilgʻor tajribalarni, taʼlim sohasidagi yangiliklarni targʻibot qilish.

**Xulosa.** Xulosa qilib shuni taʼkidlash mumkinki, metodik xizmat keng qamrovli tushuncha boʻlib, u barcha metodik xizmat tuzilmalari faoliyatini, uzluksiz kasbiy rivojlanishning tarkibiy qismi boʻlmish turli shakldagi malaka oshirish kurslarini, tayanch maktablari faoliyatini, ilgʻor ish tajribalarni ommalashtirishni, turli doirada oʻtkaziladigan seminar, konferensiya va pedagogik tadbirlarni qamrab oladi. Metodik faoliyat va metodik xizmat samaradorligini oshirish uchun ushbu faoliyatni ijodiy yondoshgan holda tanqidiy tahlil qilish, baholash va xulosalar chiqarish, tahlillar asosida metodik xizmat ishining taʼlim sifatini oshirishga qaratilgan aniq maqsadli vazifalarini belgilash lozim.

## Adabiyotlar/Литература/References:


1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida “Xalq taʼlimi tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar toʻgʻrisida” kengaytirilgan videoselektr yigʻilishining bayoni. 2022-yil 5-aprel.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligining “Xalq taʼlimi tizimida uzluksiz metodik xizmat koʻrsatish ishlarini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida” 372-son buyrugʻi. 2022-yil 5-dekabr.
3. Toʻxtasinov M., Boʻstonov A. Umumiy oʻrta taʼlim maktablari oʻqituvchilariga uzluksiz metodik xizmat koʻrsatish. Uslubiy koʻrsatma. – Namangan VPYMOʻMM, 2023. – 48 b.
4. Umumiy oʻrta taʼlim maktablari oʻqituvchilariga uzluksiz metodik xizmat koʻrsatish tartibi 2-bob 3-band. Xalq taʼlimi vazirining 2022-yil 5-dekabrdagi “Xalq taʼlimi tizimida uzluksiz metodik xizmat koʻrsatish ishlarini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida” 372-son buyrugʻiga 1-ilova.
5. Vaxobov M. Inoqov Q. Metodist maktabi oʻquvlarini tashkil etish metodikasi. Oʻquv qoʻllanma. 1-qism. – T., 2016. – 108 b.

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SCP1342V3I9Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 9 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).